

ALIMENT TO‘LOVCHI, AMMO ISHSIZMISIZ? TO‘LANADIGAN  
ALIMENT MIQDORINI BILASIZMI?

*Xayrullayeva Muxlisa Ravshan qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetining*

*1-kurs talabasi*

*E-mail: xayrullayevamuxlisa77@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aliment tushunchasi, kim tomonidan to‘lanishi va uning miqdori qancha ekanligi, ishsizlikda alimentni qanday to‘lash yo‘llari mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga ushbu holatda aliment to‘lash uchun qanday imkoniyatlar mavjudligi haqida takliflar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** aliment, aliment to‘lashning maqsadi, ishsizlikda aliment to‘lash, aliment miqdorlari.

Zamonamizning eng yuqoriga chiqqan muammoli masalalari juda ko‘plab mavzuni tashkil etadi. Turli xildagi sohalarda, istalgan yerdagi odamlar orasida va hattoki, dunyo miqqiyosida ushbu dolzarb masalalar qatoridan joy olgan “aliment” tushunchasi ham bizga begona emas. Birinchi navbatda ushbu tushunchaning lug‘aviy ma’nosini keltiradigan bo‘lsak: “aliment”- lotinchadan olingan bo‘lib, “alumentum” – qaramog‘idagi, boqimidagi degan ma’noni anglatadi. Ya’ni bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to‘laydigan nafaqasi. Aliment to‘lovlarining asosiy maqsadi shundaki, bolalarning yoki sobiq rafiqaning moddiy ehtiyojlarini qondirishdir. Bu to‘lovlar sud qarori yoki ikki tomonlama kelishuv asosida belgilanishi mumkin. Agar siz aliment to‘lovchi ammo ishsiz bo‘lsangiz, bu masala yanada og‘irlashadi. Ishsizlik paytida aliment to‘lovlarini amalga oshirish qiyin paytda quyidagi jihatlarni hisobga olish mumkin: ishsizlik to‘lovi, ya’ni agar sizning ishingiz yoki ma’lum bir daromad kelib turadigan joyingiz bo‘lmasa, ishsizlik to‘lovini olishga ariza berishingiz mumkin. Bu mablag‘lar sizga vaqtincha yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, moliyaviy holatingiz o‘zgarishi bilan aliment miqdorini qayta ko‘rib chiqish uchun sudga murojaat qila olasiz. Sud sizning yangi sharoitingizni hisobga oladi.

Aliment miqdori, asosan, ota-onaning daromadidan kelib chiqib belgilanishi mumkin. Misol uchun: ota-onaning umumiy daromadi 2 000 000 so‘m bo‘lsa, aliment miqdori 25% (500 000 so‘m) yoki 30% (600 000 so‘m) etib belgilanadi. Shuningdek, davlat ishsizlik to‘lovi odatda, ish haqqining 40%gacha to‘lanadi. Agar siz 1 500 000 so‘m olgan bo‘lsangiz, ishsizlik to‘lovi taxminan 600 000 so‘m bo‘lishi mumkin. Xayriya sifatida olingan pullarni vaqtincha aliment uchun sarflash imkoni mavjud

bo'ladi.

Aliment to'lovlari haqida gap ketganda qonuniy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi oila kodeksini misol qilib keltiramiz. Masalan: oila kodeksining 99-moddasida ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdori haqida gap ketadi. Ya'ni: agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to'rt dan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorda undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122 va 123-moddalarida ko'rsatilgan. Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami 3 oydan ortiq muddat mobaynida to'lamanlikda aybli deb topilgan shaxs eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq bilan jazolanadi. Voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan shunday bo'yin tovlashi ham yuqoridagicha jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy 2024-yil 12-martdagi 123-sonli qarorida ham aliment oluvchilarga bir nechta yangiliklar ko'rsatilgan. Uning o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni huquqiy muhofaza qilish xizmati bo'limida o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarning huquqiy muhofaza choralariga ehtiyojini aniqlash uchun normalar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan "Inson" markazining o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxs foydasiga aliment undirish, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash yuzasidan sudga kiritiladigan arizalarni tayyorlash to'g'risidagi talabnomasi kelib tushgandan so'ng, 5 ish kunida ariza yoki da'vo arizasi loyihasi shakllantirilib, "Inson" markaziga yuboriladi. "Inson" markazi tuman (shahar) adliya bo'limi tomonidan shakllantirilgan ariza yoki da'vo ariza asosida sudga murojaat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joizki, ushbu aliment masalasi ko'proq farzandlar ehtiyojlari hamda manfaatlari uchun undiriladi. Aliment to'lovlari va ishsizlik holatida harakat qilish murakkab bo'lishi mumkin, ammo har qanday vaziyatda o'z huquqlaringizni bilish va zaruriy choralarni ko'rish muhimdir. Agar sizning moddiy jihatdan sharoitingiz o'zgarayotgan bo'lsa, aliment miqdorini qayta

ko‘rib chiqishni so‘rashingiz va zaruriy yordam manbalaridan foydalanishingiz mumkin. Farzandlaringiz ehtiyojlarini ta‘minlash doimo birinchi o‘rinda turishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 30.04.1998. <https://lex.uz/mact/-104720>
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>
3. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/10753/10724/9998>